

**"SMS-Banking" axborot tizimi orqali  
korporativ Mijozlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha  
ommaviy oferta shartnomasi**

1. Ushbu hujjat "ASIA ALLIANCE BANK" ATB (bundan buyon matnda Bank deb yuritiladi) ning rasmiy taklifi (ommaviy oferta) hisoblanadi va Bankning korporativ Mijozlariga (bundan buyon matnda Mijoz deb yuritiladi) "SMS-Banking" axborot Tizimi orqali xizmatlarni taqdim etishda ularga xizmat ko'rsatishning standart shartlari va tartibini belgilaydi.

2. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining (O'zR FK) 369-moddasi 2-bandiga muvofiq, quyida keltirilgan shartlar qabul qilingan va Bankka Shartnomaga qo'shilish va "SMS-Banking" tizimiga ulanish to'g'risida ariza berilgan taqdirda, ushbu oferta akseptini amalga oshiruvchi korporativ Mijoz Buyurtmachiga (O'zR FK 370-moddasi 4-qismiga muvofiq oferta aksepti ofertada ko'rsatilgan shartlar asosida Shartnoma tuzishga tengdir), Bank va Buyurtmachi/Mijoz esa birgalikda ushbu Shartnoma Tomonlariga aylanadi.

3. Yuqorida aytib o'tilganlar bilan bog'liq holda, ushbu ommaviy ofertaning matnini diqqat bilan o'qing va Bank tariflari bilan tanishib chiqing. Agar Siz taklifning biron bir bandiga rozi bo'lmasangiz, Bank Sizga xizmatlardan foydalanishni rad etishni taklif qiladi.

**1. ATAMALAR**

1.1.Oferta - ushbu hujjat ""SMS-Banking" tizimi orqali yuridik shaxsga xizmatlar ko'rsatish bo'yicha Ommaviy Oferta-Shartnomasi".

1.2.Oferta aksepti - Mijoz tomonidan ushbu ofertaning 3.1-bandida ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirish orqali ofertani to'liq va so'zsiz qabul qilish.

1.3.Buyurtmachi/Mijoz - ofertani akseptlagan va shu bilan tuzilgan oferta-Shartnomasi bo'yicha Bank xizmatlarining buyurtmachisi bo'lgan shaxs.

1.4.Oferta-Shartnomasi - "SMS-Banking" tizimi orqali korporativ Mijozga xizmat ko'rsatish uchun oferta aksepti orqali tuzilgan Bank va Mijoz o'rtasidagi Shartnoma.

1.5."SMS-Banking" tizimi (bundan buyon matnda Tizim deb yuritiladi) - Bu Mijozga ro'yxatdan o'tadigan bildirishnoma va axborot xarakteridagi SMS-xabar va/yoki Telegram-xabarlarini olish imkonini beruvchi Bank ilovasi.

1.6.SMS-xabar - Mijozning mobil telefon raqamiga xabarnoma va axborot xarakteridagi aniq tuzilgan so'zlar bilan yuborilgan qisqa xabar;

1.7.Telegram-xabar-Mijozga Telegram messenjeri orqali xabarnoma yoki axborot xarakteridagi ma'lum bir tuzilma bilan yuborilgan xabar.

1.8."SMS-Banking" xizmatini bloklash - Mijozning mobil telefon raqamiga SMS-xabarlar va/yoki Telegram-xabarlarini taqdim etish xizmatini bloklash;

1.9.Xizmat - Bank tomonidan ushbu Shartnoma asosida "SMS-Banking" tizimi orqali xabarnoma va axborot xususiyatiga ega SMS-xabarlar va/yoki Telegram-xabarlar taqdim etish;

1.10.Uchinchi shaxs - Shartnomaga aloqasi bo'lmagan jismoniy shaxs.

**2. BANK TOMONIDAN MIJOZGA XIZMAT KO'RSATISHNING  
UMUMIY SHARTLARI**

2.1."SMS-Banking" xizmatiga ulanish uchun Mijoz Bankda hisob raqam(lar)iga va O'zbekiston Respublikasi operatorlarining amaldagi uyali aloqa raqamiga ega bo'lishi kerak;

2.2.SMS-xabarlar va/yoki Telegram-xabarlarini Mijozning mobil telefon raqamiga yetkazib

berish kecha-kunduz amalga oshiriladi;

2.3. Bank Mijoz tomonidan "Shartnomaga qo'shilish va ushbu Shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan "SMS-Banking" tizimiga ulanish to'g'risida ariza (1-ilova) imzolangan qadar ushbu Shartnomada nazarda tutilgan xizmatlarni taqdim etishi va majburiyatlarni o'z zimmasiga olishga majbur emas.

### 3. SHARTNOMA PREDMETI

3.1. Ushbu Shartnomaning shartlari standart shaklda belgilanadi va Mijoz tomonidan "Shartnomaga qo'shilish va SMS-Banking tizimiga ulanish to'g'risida ariza"ni imzolash orqali qabul qilinishi mumkin (1-ilova). Bank Shartnomaga qo'shilish va "SMS-Banking" tizimiga ulanish to'g'risida ariza qabul qilishi Mijozning ushbu Shartnomaga to'liq qo'shilishini anglatadi. Shartnoma Mijoz "Shartnomaga qo'shilish va "SMS-Banking" tizimiga ulanish to'g'risida ariza (1-ilova) imzolangan va uning Banki tomonidan qabul qilingan kundan boshlab tuzilgan hisoblanadi. Xizmat Mijoz tanlagan xabarlarning quyidagi turlari bo'yicha taqdim etiladi:

Xabarnomalar - Mijozning Bankdagi hisob(lar)idagi pul qoldig'i o'zgartirilishi to'g'risidagi SMS-xabar va/yoki Telegram-xabar;

Mijoz so'roviga xabarnomalar - Shartnomaga qo'shilish va "SMS-Banking" tizimiga ulanish to'g'risidagi arizada (1-ilova) va/yoki "SMS-Banking" (3-ilova) tizimidagi rekvizitlarni o'zgartirish to'g'risidagi arizada ko'rsatilgan hisobvaraqlardagi pul mablag'lari qoldig'i to'g'risida, shuningdek joriy kun uchun hisob(lar) bo'yicha operatsiyalar to'g'risida Mijozning so'roviga SMS-xabar va/yoki Telegram-xabar;

Axborot beruvchi - Bankdan axborot xarakteridagi xabarlar (yangi xizmatlar, yangi tariflar va boshqalar).

3.2. Bank ushbu Shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan arizalarda ko'rsatilgan Bank hisobvaraqlari bo'yicha xizmat ko'rsatadi (1,3-illovalar).

3.3. Mijoz ushbu Shartnomaga qo'shilish to'g'risidagi arizani (1-ilova) imzolash orqali Bankka Mijozning Bankda ochilgan Bank hisobvaraqlarini to'g'ridan-to'g'ri debetlash orqali Mijozning qo'shimcha roziligisiz Bankning tasdiqlangan tariflariga muvofiq komissiyani hisobdan chiqarish huquqini beradi.

3.4. Shartnomaga qo'shilish va "SMS-Banking" tizimiga ulanish to'g'risida ariza imzolash orqali Mijoz quyidagilarni tasdiqlaydi:

3.4.1. Arizani imzolashdan oldin "ASIA ALLIANCE BANK" ATB "SMS-Banking" axborot Tizimi bilan ishlash bo'yicha Yo'riqnomaga bilan tanishganligini (5-ilova);

3.4.2. u tomonidan Bank Tariflari, "SMS-Banking" tizimida xizmatlar ko'rsatish shartlari, "SMS-Banking" tizimiga ulanish muddatlari, ro'yxatdan o'tish shartlari, zarur hujjatlar ro'yxati, "SMS-Banking" tizimining ishlash tartibi, Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmagan taqdirda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlar, shuningdek tomonlarning huquqlari va majburiyatlari va ularning javobgarligi to'g'risida ma'lumot olinganligini.

### 4. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Bank quyidagi majburiyatlarga ega:

4.1.1. Shartnomaga qo'shilish va "SMS-Banking" tizimiga ulanish to'g'risidagi arizada (1-ilova) va/yoki ushbu Shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan "SMS-Banking" tizimidagi rekvizitlarni o'zgartirish to'g'risidagi arizada (3-ilova) Mijoz tomonidan ko'rsatilgan hisobvaraqlar bo'yicha mobil telefon raqamini tizimga ulash.

4.1.2. Mijozning yozma talabiga binoan, unga yuborilgan SMS-xabar va/yoki Telegram-

xabarlar to'g'risida oxirgi xabar yuborilgan kundan boshlab 1 (bir) oydan oshmagan muddatda ma'lumot berish;

4.1.3. "SMS-Banking" xizmati bo'yicha ma'lumot olish masalasida Mijozga maslahat berish;

4.1.4. tizimning texnik imkoniyatlarini tegishli darajada qo'llab-quvatlash;

4.1.5. Mijoz ro'yxatdan o'tgan Bank bo'linmasiga (belgilangan ish rejimiga muvofiq) Mijoz tomonidan uyali telefon va/yoki SIM-karta yo'qolgan taqdirda Bankning tegishli hujjatlarida belgilangan tartibda taqdim etilgan yozma ariza (4-ilova) asosida xizmatni tezkor bloklash;

4.1.6. agar xizmat Shartnomaning 4.1.5-bandiga binoan bloklangan bo'lsa, Mijozning yozma arizasi asosida xizmatni blokdan chiqarish (4-ilova);

4.1.7. Mijozning yozma arizasi asosida Mijozni ariza kelib tushgan kundan boshlab 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay xizmatdan uzish (2-ilova).

4.2. Bank quyidagi huquqlarga ega:

4.2.1. ushbu Shartnomaning 6.3-bandida belgilangan tartibda Bank xizmatlari va ushbu Shartnoma tariflariga bir tomonlama o'zgartirishlar kiritish.

Agar Mijoz kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga rozi bo'lmasa, Mijoz ushbu Shartnomani "SMS-Banking" tizimini xizmatdan uzish uchun ariza berish orqali bekor qilishga haqlidir (2-ilova).

Shartnoma va/yoki Tariflar [www.aab.uz](http://www.aab.uz) saytida yangi tahrirda joylashtirilgan kundan boshlab 10 (o'n) kalendar kun ichida "SMS-Banking" tizimini xizmatdan uzish uchun arizalar (2-ilova) Bankka taqdim etilmagan taqdirda, ushbu Shartnoma yangi tahrirda Mijoz tomonidan unga to'liq qo'shish orqali qabul qilingan hisoblanadi;

4.2.2. 3.3-bandda nazarda tutilgan tartibda ko'rsatilgan xizmat uchun komissiya miqdorini hisobdan chiqarish.

## 5. MIJOZNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Mijoz quyidagi majburiyatlarga ega:

5.1.1. SMS-xabarlar va/yoki Telegram-xabarlar uyali telefon raqamiga keladigan mobil telefonga ega bo'lish;

5.1.2. SMS-xabarlar va/yoki Telegram-xabarlarini qabul qilish bo'yicha so'rovlarni "ASIA ALLIANCE BANK" ATBning "SMS-Banking" axborot tizimi bilan ishlash bo'yicha Yo'riqnoma talablariga muvofiq shakllantirish;

5.1.3. "SMS-Banking" xizmati tomonidan olingan ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga bermaslik, nusxalamaslik yoki tuzatmaslik;

5.1.4. ushbu Shartnomada nazarda tutilgan tartibda Bankning amaldagi tariflariga muvofiq xizmat uchun Bankka komissiya to'lash, buning uchun Bank komissiyasini to'lash uchun yetarli bo'lgan hisob(lar)dagi pul qoldig'ini saqlab qolish;

5.1.5. Shartnomaga qo'shilish va "SMS-Banking" tizimiga ulanish to'g'risidagi arizada ko'rsatilgan Mijozning ma'lumotlari o'zgargan taqdirda, Ariza (3-ilova) asosida tegishli o'zgartirishlar kiritish uchun Bankka xabar berish (1-ilova);

5.1.6. uyali telefon va/yoki Sim-karta yo'qolgan taqdirda, darhol yozma murojaat orqali xizmatni vaqtincha bloklash to'g'risida Bankka xabar berish (4-ilova).

5.2. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

5.2.1. SMS-Banking tizimidagi rekvizitlarni o'zgartirish uchun taqdim etilgan yozma ariza asosida xizmat ko'rsatish uchun tizimdagi mobil telefon raqamini o'zgartirish (3-ilova);

5.2.2. "SMS-Banking" tizimidagi rekvizitlarni o'zgartirish uchun taqdim etilgan yozma ariza asosida Shartnomaga qo'shilish va "SMS-Banking" tizimiga ulanish to'g'risidagi arizada ko'rsatilgan xizmat ko'rsatilishi lozim bo'lgan hisobvaraqlar ro'yxatini o'zgartirish yoki to'ldirish (3-ilova);

5.2.3. "SMS-Banking" tizimidagi rekvizitlarni o'zgartirish uchun taqdim etilgan yozma ariza

asosida Shartnomaga qo'shilish va "SMS-Banking" tizimiga ulanish to'g'risidagi arizada ko'rsatilgan xizmat uchun to'lovlarni hisobdan chiqarish uchun hisobvaraqlar ro'yxatini o'zgartirish yoki to'ldirish (3-ilova);

5.2.4. "SMS-Banking" tizimi orqali xizmatlar ko'rsatish Shartnomasini bekor qilish va "SMS-Banking" tizimini xizmatdan uzish uchun ariza berish orqali xizmatdan voz kechish (2-ilova).

## 6. TO'LOV TARTIBI

6.1. Xizmat uchun to'lov miqdori Bank tariflari bilan belgilanadi.

6.2. Bank Mijozga mazkur Shartnomaning tariflari va shartlari o'zgarganligi to'g'risida o'zgartirishlar kuchga kirgunga qadar 10 Bank kunidan kechiktirmay kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar to'g'risidagi ma'lumotlarni Bank bo'linmalaridagi stendlarga, rasmiy [www.aab.uz](http://www.aab.uz) saytiga joylashtirish yo'li bilan yoki Bankning tanlovi bo'yicha SMS-xabar va/yoki Telegram-xabarni yuborish orqali xabardor qiladi.

6.3. Komissiya uchun to'lov Bank tomonidan Mijozning hisobvarag'(lar)idan talab qilinadigan summani qabul qilmasdan hisobdan chiqarish yo'li bilan amalga oshiriladi. Hisobdan chiqarish Bank tomonidan to'lov amalga oshirilgan har oyning oxirgi ish kunida amalga oshiriladi.

6.4. Agar Mijozning Bankdagi hisobvarag'(lar)ida hisobdan chiqarilgan kun uchun komissiya to'lashga yetarli mablag' bo'lmasa (ya'ni to'lov amalga oshiriladigan oyning oxirgi ishchi (Bank) kunida), Mijoz komissiyani to'lash majburiyatini bajarishni kechiktirgan deb hisoblanadi.

## 7. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

7.1. Bank quyidagilar uchun javobgar emas:

7.1.1. Shartnomaga qo'shilish va "SMS-Banking" tizimiga ulanish to'g'risidagi arizada (1-ilova) va/yoki "SMS-Banking" tizimidagi rekvizitlarni o'zgartirish to'g'risidagi arizada ko'rsatilgan Mijoz rekvizitlaridagi o'zgarishlar to'g'risida ma'lumot yo'qligi sababli xizmat ko'rsatmaganlik uchun (3-ilova);

7.1.2. uyali aloqa operator(lar)i faoliyatida uzilishlar yuz berganligi uchun;

7.1.3. telefon, SIM-karta yo'qolgan, o'g'irlangan taqdirda yuborilgan ma'lumotlarga uchinchi shaxslar tomonidan kirish va boshqalar uchun;

7.1.4. SMS-xabarlar va/yoki Telegram-xabarlarini, ular yuborilgan vaqtdan Mijozning mobil telefoni 24 soatdan ko'proq vaqt davomida o'chirilgan, tarmoq zonasidan tashqarida bo'lgan va hokazo bo'lsa, Mijozning mobil telefon raqamiga SMS-xabarlar va/yoki Telegram-xabarlarini yetkazib bermaganlik uchun;

7.1.5. Mijoz tomonidan SMS-xabar va/yoki Telegram - xabarda mavjud bo'lgan uzatilayotgan axborotni uchinchi shaxslarga oshkor qilinganligi uchun;

7.2. Mijozning Bank hisobvaraqlari bo'yicha "SMS-Banking" xizmati ishonchnoma asosida faoliyat yuritayotgan uchinchi shaxslarga taqdim etilmaydi.

7.3. Mijoz quyidagi javobgarliklarga ega:

7.3.1. uchinchi shaxslar tomonidan yuborilgan ma'lumotlarga kirilganligi uchun;

7.3.2. telefon, SIM-karta yo'qolgani, o'g'irlangani va shu kabilar haqida Bankka o'z vaqtida xabar berish uchun.;

7.3.3. mobil telefon raqami o'zgarganligi to'g'risida Bankka o'z vaqtida xabar berish uchun.

7.4. Mazkur Shartnomaning shartlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, shu jumladan ushbu Shartnomaga muvofiq munosabatlarni tartibga solish bo'yicha Bank qonunchiligiga tegishli tartibda o'zgargan taqdirda Bank tomonidan bir tomonlama o' zgartirilishi mumkin.

## 8. FORS-MAJOR HOLATLARI

8.1. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun, agar bunday bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik kuch bilan yengib bo'lmas holatlar (fors-major holatlari) natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

8.2. Fors-major holatlari deganda Tomonlar ushbu Shartnoma imzolanganidan keyin favqulodda xarakterdagi kutilmagan va oldini olish mumkin bo'lmagan hodisalar natijasida yuzaga kelgan holatlar tushuniladi, masalan: urushlar va harbiy harakatlar, tabiiy ofatlar, uyali aloqa operatorlarining harakatlari, O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi va/yoki ijro etuvchi hokimiyat organlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining ushbu Shartnoma predmetiga bevosita tegishli tomonlarning faoliyatini taqiqlovchi yoki cheklaydigan harakatlari.

8.3. Tomonlarning fors-major holatlari, shuningdek, kommunal xizmatlar va aloqa xizmatlarini yetkazib beruvchi korxonalarining Tomonlar tarafidan ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishni imkonsiz qiladigan harakatlari va harakatsizliklarini, Bank tizimlarining ishlashidagi texnik nosozliklarni ham o'z ichiga oladi.

8.4. Ushbu Shartnomaning 8.2 va 8.3-bandlarida ko'rsatilgan holatlar tufayli ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish imkoni bo'lmagan Tomon boshqa Tomonni kechiktirmasdan yozma ravishda xabardor qilishi va boshqa Tomonning iltimosiga binoan ushbu kuch bilan yengib bo'lmas holatlarning yuzaga kelishi va/yoki tugatilishini tasdiqlovchi dalillarni taqdim etishi shart. Vakolatli organ tomonidan berilgan yozma hujjatlar ushbu holatlarning yuzaga kelishi va davomiyligini tasdiqlovchi dalil bo'lib xizmat qiladi.

8.5. 8.2 va 8.3-bandlarda nazarda tutilgan hollarda, ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati bunday holatlar va ularning oqibatlari amalda bo'lgan vaqtga mutanosib ravishda kechiktiriladi.

8.6. Agar fors-major holatlari ketma-ket 30 kundan ortiq davom etsa, Tomonlarning har biri Shartnomani bekor qilish huquqiga ega. Bank ushbu holatda Shartnomani bekor qiladi va Shartnomani bekor qilish to'g'risida tegishli xabarnomani Bank bo'linmalaridagi stendlarga, [www.aab.uz](http://www.aab.uz) rasmiy saytiga joylashtirish yoki Bank tanloviga ko'ra SMS-xabar va/yoki Telegram-xabarlari orqali xabar joylashtiradi.

## 9. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA UNI BEKOR QILISH TARTIBI

9.1. Shartnoma tomonlar imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi va muddatsiz hisoblanadi.

9.2. Shartnoma istalgan vaqtda Mijozning iltimosiga binoan bekor qilinishi mumkin.

9.3. Shartnoma quyidagi hollarda Bank tomonidan bir tomonlama bekor qilinishi mumkin:

- Bankning amaldagi tariflariga muvofiq xizmat uchun komissiyani to'lash uchun Mijozning Bank hisobvaraqlarida 3 oydan ortiq vaqt davomida mablag' yo'qligi sabab Xizmatdan uzish yo'li bilan;

- Shartnomaga qo'shilish va "SMS-Banking" tizimiga ulanish to'g'risidagi arizada (1-ilova) va/yoki "SMS-Banking" tizimidagi rekvizitlarni o'zgartirish to'g'risidagi arizada ko'rsatilgan hisobvaraqlar bo'yicha Shartnoma munosabatlarini bekor qilish (3-ilova);

- Bank tomonidan "SMS-Banking" tizimi orqali Mijozlarga xizmat ko'rsatishni to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilish.

## 10. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

10.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha nizolar muzokaralar orqali hal qilinadi. Agar kelishuvga erishilmasa, nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq vakolatli sudlarda

ko'rib chiqilishi lozim.

10.2. Agar ushbu Shartnomaning bir qismi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda haqiqiy emas deb topilgan bo'lsa, unda amaldagi Qonunchilik normalarida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, ushbu fakt butun Shartnomani va/yoki uning boshqa qismlarini avtomatik ravishda haqiqiy emas deb topishga olib kelmaydi.

## 9. YAKUNIY QOIDALAR

11.1. Ushbu Shartnoma davlat tilida va rus tillarida tuzilgan.

11.2. Ushbu Shartnomada hal etilmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

## 10. BANKNING YURIDIK MANZILI VA REKVIZITLARI

### **Bank**

"ASIA ALLIANCE BANK" ATB

### **Manzil:**

Toshkent shahri, Yashnobod tumani,  
Maxtumquli ko'chasi, 2a.

### **Bank rekvizitlari:**

h/r 2980200000001095001

MFO: 01095 STIR: 207018693

XXTUT: 64190 OKPO:22921172

Imzo (Dumaloq muhr) \_\_\_\_\_

M.O'.